



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

2026-YIL
IYUN/6-SON, II-QISM



ISSN: 2992-8982

<https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz/>





IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Bosh muharrir:

Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich

Elektron nashr. 2026-yil, iyun.

Bosh muharrir o'rinbosari:

Karimov Norboy G'aniyevich

Muharrir:

Qurbonov Sherzod Ismatillayevich

Tahrir hay'ati:

Salimov Oqil Umrzoqovich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Rae Kvon Chung, Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati
Osman Mesten, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari
Axmedov Durbek Kudratillayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Sayfullo Normatovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Kalonov Muxiddin Baxritdinovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Siddiqova Sadoqat G'afforovna, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Xudoyqulov Sadirdin Karimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Maxmudov Nosir, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Samadov Asqarjon Nishonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor
Slizovskiy Dimitriy Yegorovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Ikrom Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xajiyev Baxtiyor Dushaboyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Hakimov Nazar Hakimovich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Musayeva Shoiraz Azimovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor
Ali Konak (Ali Ko'nak), iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor (Turkiya)
Cham Tat Huei, falsafa fanlari doktori (PhD), professor (Malayziya)
Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldixo'ja o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dots.
Faxridinov Zafarjon Faxridin o'g'li, O'zb. Res. Bosh prokuraturasi HIJQKD boshqarma boshlig'i
Utayev Uktam Choriyevich, Anijon viloyati prokurorining o'rinbosari
Ochilov Farkhod, O'zb. Res. Bosh prokuraturasi IJQK Departamentining Namangan viloyati boshqarmasi boshlig'i
Buzrukhonov Sarvarxon Munavvarxonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Axmedov Javohir Jamolovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), katta o'qituvchi
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), v.b. dots.
Djudi Smetana, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Krissi Lyuis, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Glazova Marina Viktorovna, Iqtisodiyot fanlari doktori (Moskva)
Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Sevil Piriyeva Karaman, falsafa fanlari doktori (PhD) (Turkiya)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon o'g'li, TDIU ITI departamenti rahbari
Ochilov Bobur Baxtiyor o'g'li, TDIU katta o'qituvchisi
Golischeva Yelena Vyacheslavovna, Iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent.
Abdukarimova Dinara Rustamxonovna, bank-moliya akademiyasi professori, DSc., professor.
Ikramov Murod Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Nazarova Ra'no Rustamovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Editorial board:

Salimov Okil Umrzokovich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Abdurakhmanov Kalandar Khodjayevich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Sharipov Kongirاتبay Avezimbetovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Rae Kwon Chung, South Korea, Honorary Professor at TSUE, Nobel Prize Laureate
Osman Mesten, Member of the Turkish Parliament, Head of the Turkey–Uzbekistan Friendship Society
Akhmedov Durbek Kudratillayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Sayfullo Normatovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Abdurakhmanova Gulnora Kalandarovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Kalonov Mukhiddin Bakhridinovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Siddikova Sadokat Gafforovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences
Khudoykulov Sadirdin Karimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Makhmudov Nosir, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Samadov Askarjon Nishonovich, Candidate of Economic Sciences, Professor
Slizovskiy Dmitriy Yegorovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Ikrom Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Eshtayev Alisher Abduganiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khajiyev Bakhtiyor Dushaboyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khakimov Nazar Khakimovich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Musayeva Shoira Azimovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Professor
Ali Konak, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor (Turkey)
Cham Tat Huei, Doctor of Philosophy (PhD), Professor (Malaysia)
Foziljonov Ibrokhimjon Sotvoldikhoja ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Fakhridinov Zafarjon Fakhridin ogli, Head of the DCEC under the Prosecutor General's Office of the Rep. of Uzb.
Utayev Uktam Choriyevich, Deputy Prosecutor of Anijan Region
Ochilov Farkhod, Head of the Namangan Regional Department of the Department of Internal Affairs of Rep. of Uzb.
Buzrukkhonov Sarvarkhon Munavvarkhonovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Akhmedov Javokhir Jamolovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences
Tokhirov Jaloliddin Ochil ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Technical Sciences, Senior Lecturer
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Acting Associate Professor
Judi Smetana, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Chrissy Lewis, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Glazova Marina Victorovna, Doctor of Sciences in Economics (Moscow)
Nosirova Nargiza Jamoliddin kizi, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Sevil Piriyea Karaman, Doctor of Philosophy (PhD) (Turkey)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon ugli, Head of the Department of Scientific Research and Innovations, TSUE
Ochilov Bobur Bakhtiyor ugli, Senior lecturer at TSUI
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor.
Abdukariyeva Dinara Rustamkhanovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Ikramov Murod Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Nazarova Ra'no Rustamovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor

Ekspertlar kengashi:

Berkinov Bazarbay, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Po'latov Baxtiyor Alimovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Aliyev Bekdavat Aliyevich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xalikov Suyun Ravshanovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Rustamov Ilhomiddin, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Hakimov Ziyodulla Ahmadovich, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Kamilova Iroda Xusniddinovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
G'afurov Doniyor Orifovich, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Fayziyev Oybek Raximovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna, katta o'qituvchi
Babayeva Zuhra Yuldashevna, mustaqil tadqiqotchi
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Geografiya fanlari doktori, professori
Umirzoqov Ja'sur Artiqboy o'g'li, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent
Zebo Kuldasheva, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Board of Experts:

Berkinov Bazarbay, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Pulatov Bakhtiyor Alimovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Aliyev Bekdavat Aliyevich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khalikov Suyun Ravshanovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Rustamov Ilhomiddin, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Khakimov Ziyodulla Akhmadovich, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Kamilova Iroda Xusniddinovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics
Gafurov Doniyor Orifovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogy
Fayziyev Oybek Raximovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Tukhtabayev Jamshid Sharafetdinovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Khamidova Faridaxon Abdulkarimovna, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Yakhshiboyeva Laylo Abdisattorovna, Senior Lecturer
Babayeva Zuhra Yuldashevna, Independent Researcher
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Doctor of Geographical Sciences, Professor
Umirzokov Jasur Artiqboy ugli, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor
Zebo Kuldasheva, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor

- 08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 Marketing
- 08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 Menejment
- 08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati

Muassis: "Ma'rifat-print-media" MChJ

Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti,
O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi huzuridagi Iqtisodiy
jinoyatlarga qarshi kurashish departamenti

Jurnalning ilmiyligi:

“Yashil” iqtisodiyot va
taraqqiyot” jurnali

O'zbekiston Respublikasi
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar
vazirligi huzuridagi Oliy
attestatsiya komissiyasi
rayosatining
2023-yil 1-apreldagi
336/3-sonli qarori bilan
ro'yxatdan o'tkazilgan.



MUNDARIJA

METAVERS TURIZMI: VIRTUAL DUNYODAGI SAYOHATNING IQTISODIY, HUQUQIY VA IJTIMOIIY NATIJALARI	12
Urazov Jamshidjon Sa'dullayevich	
Eshimova Sevinch Baxtiyor qizi	
RAQAMLI TRANSFORMATSIYA SHAROITIDA SUN'YI INTELLEKT VA PLATFORMA EKOTIZIMLARINING KORXONA INNOVATSIYALARIDAGI O'RNI	16
Izzatullayeva Madinabonu Yolqin qizi	
METHODOLOGY FOR ASSESSING THE ECONOMIC DAMAGE OF ECOLOGICAL HAZARDS IN URBAN AREAS: CONCEPTUAL SHORTCOMINGS OF NON-MARKET VALUATION METHODS AND THE INTEGRAL DAMAGE FUNCTION APPROACH	20
Abbos Saydullaev	
Iqboloy Choriyorova	
O'ZBEKISTONDA EKOLOGIK BARQARORLIKNI TA'MINLASHDA RAQAMLI IQTISODIYOT IMKONIYATLARI	31
Ibragimova Rayxon Tojibayevna	
OZIQ-OVQAT SANOATIDA "ZAYLANMA IQTISODIYOT (CIRCULAR ECONOMY)" MODELINI RIVOJLANTIRISH ISTIQBOLLARI	36
Elnoraxon Muminova Abdulkarimovna	
Sarvinov Mamatojiyeva Dilshodjon qizi	
TRANSPORT KORIDORLARINI BOSHQARISHDA LOGISTIKA MENEJMENTINING SAMARADORLIGINI OSHIRISH YO'LLARI	42
Umarova Dilfuza Raxmatulla qizi	
ОЦЕНКА ТЕКУЩЕГО СОСТОЯНИЯ И ПЕРСПЕКТИВ ЦИФРОВИЗАЦИИ МИСЕ-СЕКТОРА В УЗБЕКИСТАНЕ	47
Narzulayeva Fariza Akmalayevna	
ECONOMETRIC MODELING OF THE DYNAMICS OF RETAIL TRADE TURNOVER UNDER THE INFLUENCE OF REAL HOUSEHOLD INCOME USING A LOGARITHMIC FUNCTION	53
Gaybullayev Sarvar Uktam ugli	
MILLIY IQTISODIYOTNI RIVOJLANTIRISHDA XORIJIY INVESTITSİYALARNI JALB ETISHNING MAZMUN-MOHİYATI VA NAZARIY ASOSLARI	59
Mizamova Umida Jamoliddin qizi	
SPORT TAKOMILLASHUVI BOSQICHIDAGI FUTBOLCHILARNING MUSOBAQA FAOLIYATIDA INNOVATSION VOSITALARNING O'RNI	64
Mamatrayimov Anvar Chorsanbiyavich	
MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARGA CHET TILINI VIZUAL MATERIALLAR VOSITASIDA O'RGATISHNI TAKOMILLASHTIRISH	72
Olimova Shahlo Bahodir qizi	
Inomova Mahliyo Yusuf qizi	
INCREASING THE ATTRACTIVENESS OF DIVIDEND POLICY IN UZBEKISTAN COMPANIES	76
Akmal Komiljonovich Shermukhamedov	
XUSUSIYLASHTIRISH JARAYONLARINING IQTISODIY SAMARADORLIKKA TA'SIRI	81
Musurmonqulov Muhammad Ural o'g'li	
TEMIR YO'L ISHLAB CHIQRISH KORXONALARINI RIVOJLANTIRISHNING TASHKILIY MEKANIZMI	86
Baymatov Atxam Axmadaliyevich	



MENEJMENT NAZARIYASINING SHAKLLANISHI VA BOSHQARUV SAMARADORLIGINI TA'MINLASHDAGI ROLI.....	92
Saidova Xilolaxon Rashidjon qizi	
OPPORTUNITIES FOR USING MARKETING STRATEGIES TO ENSURE THE SUSTAINABLE DEVELOPMENT OF HOTEL ENTERPRISES IN UZBEKISTAN	97
Sardor Kuvandikov	
ЭФФЕКТИВНОСТЬ СОЦИАЛЬНЫХ ПРОГРАММ: СРАВНИТЕЛЬНЫЙ АНАЛИЗ	106
Абдуллаева Зульфия Иззатовна	
NAMANGAN VILOYATINING HUDUDIYIQTISODIY TUZILMASI VA SHAHARLAR TIZIMINING SHAKLLANISH XUSUSIYATLARI.....	113
Ahmadjanov Ilyosbek Ilhomjon o'g'li	
JISMONIY SHAXSLAR DAROMADLARINI SOLIQQA TORTISH MEXANIZMI VA XALQARO TAJRIBALAR QIYOSIY TAHLILI	117
G'afforov Kamronbek	
"O'ZBEKISTON TEMIR YO'LLARI" AJNING SINGULYAR VA BARQARORLIK KO'RSATKICHLARI TAHLILI	123
Bobojonova Zarnigor Shokirovna	
MINTAQAVIY IQTISODIY JARAYONLARNI BAHOLASHDA DSGE MODELINING QASHQADARYO SHAROITIGA MOSLASHTIRILGAN TAHLILIIY KOMPONENTLARI.....	132
Muxitdinov Xudayar Suyunovich	
Quvatova Gulzoda Faxriddin qizi	
O'ZBEKISTONDA TIBBIY TURIZM VA TIBBIY XIZMATLAR TIZIMINING MAZMUNI	137
Ergasheva Iroda Ibrohim qizi	
FOYDA SOLIG'INING BANKLAR MOLIYAVIY HOLATIGA TA'SIRINI BAHOLASH	141
Maxmudov Omon To'xtayevich	
RAQAMLI INFRATUZILMA TUSHUNCHASI, TARKIBI VA IQTISODIY MAZMUNI.....	147
Pardayev Orifjon Charshamiyevich	



UDK 330.34:004

RAQAMLI INFRATUZILMA TUSHUNCHASI, TARKIBI VA IQTISODIY MAZMUNI

Pardayev Orifjon Charshamiyevich
Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch
davlat universiteti mustaqil izlanuvchisi

Annotatsiya. Mazkur maqolada raqamli infratuzilmaning nazariy asoslari, uning mohiyati, tarkibiy elementlari va iqtisodiy mazmuni tahlil qilingan. Raqamli infratuzilmaning zamonaviy iqtisodiyotdagi o'рни, iqtisodiy o'sishni ta'minlash, ishlab chiqarish samaradorligini oshirish hamda raqamli xizmatlar ko'lamini kengaytirishdagi ahamiyati yoritilgan. Shuningdek, telekommunikatsiya tarmoqlari, ma'lumotlarni qayta ishlash markazlari, bulutli texnologiyalar, raqamli platformalar va axborot tizimlarining raqamli infratuzilma tarkibidagi o'рни ochib berilgan. Tadqiqot natijalariga ko'ra, raqamli infratuzilmani rivojlantirish iqtisodiy taraqqiyot, innovatsion faoliyat va raqamli transformatsiya jarayonlarini jadallashtirishning muhim omili ekanligi asoslab berilgan.

Kalit so'zlar: raqamli infratuzilma, raqamli iqtisodiyot, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, telekommunikatsiya tarmoqlari, raqamli platformalar, bulutli texnologiyalar, ma'lumotlarni qayta ishlash markazlari, innovatsiyalar, raqamli transformatsiya, iqtisodiy rivojlanish.

Аннотация. В данной статье исследованы теоретические основы цифровой инфраструктуры, её сущность, составные элементы и экономическое содержание. Рассмотрена роль цифровой инфраструктуры в современной экономике, её значение для обеспечения экономического роста, повышения эффективности производства и расширения масштабов цифровых услуг. Раскрыто место телекоммуникационных сетей, центров обработки данных, облачных технологий, цифровых платформ и информационных систем в структуре цифровой инфраструктуры. По результатам исследования обосновано, что развитие цифровой инфраструктуры является важным фактором экономического роста, инновационной деятельности и процессов цифровой трансформации.

Ключевые слова: цифровая инфраструктура, цифровая экономика, информационно-коммуникационные технологии, телекоммуникационные сети, цифровые платформы, облачные технологии, центры обработки данных, инновации, цифровая трансформация, экономическое развитие.

Abstract. This article examines the theoretical foundations of digital infrastructure, including its essence, structural components, and economic significance. The study highlights the role of digital infrastructure in the modern economy, emphasizing its contribution to economic growth, increased production efficiency, and the expansion of digital services. Particular attention is given to telecommunication networks, data centers, cloud technologies, digital platforms, and information systems as key elements of digital infrastructure. The findings demonstrate that the development of digital infrastructure serves as a significant driver of economic progress, innovation activities, and digital transformation processes.

Keywords: digital infrastructure, digital economy, information and communication technologies, telecommunication networks, digital platforms, cloud technologies, data centers, innovations, digital transformation, economic development.

KIRISH

Jahon iqtisodiyotida raqamlashtirish jarayonlarining jadallashuvi natijasida raqamli infratuzilma iqtisodiy rivojlanishning muhim omillaridan biriga aylanib bormoqda. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining (AKT) keng joriy etilishi, internet tarmoqlarining rivojlanishi, ma'lumotlarni qayta ishlash va saqlash texnologiyalarining takomillashuvi hamda raqamli platformalarning keng qo'llanilishi iqtisodiy faoliyatning barcha sohalarida tub o'zgarishlarni yuzaga keltirmoqda. Shu sababli raqamli infratuzilmaning mazmun-mohiyati, tarkibiy tuzilishi va iqtisodiy ahamiyatini ilmiy jihatdan tadqiq etish dolzarb masalalardan biri hisoblanadi.

Raqamli infratuzilma raqamli iqtisodiyotning asosiy tayanchi bo'lib, u axborotlarni yaratish, uzatish, saqlash va qayta ishlash imkoniyatini ta'minlaydigan texnologik, dasturiy hamda tashkiliy vositalar majmuasini o'z



ichiga oladi. Mazkur infratuzilma telekommunikatsiya tarmoqlari, internet xizmatlari, ma'lumotlar markazlari, bulutli texnologiyalar, dasturiy platformalar, elektron hukumat tizimlari hamda turli raqamli xizmatlarni qamrab oladi. Raqamli infratuzilmaning rivojlanishi iqtisodiyotning raqobatbardoshligini oshirish, innovatsion faoliyatni rag'batlantirish, ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish jarayonlarining samaradorligini yuksaltirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

So'nggi yillarda dunyo mamlakatlarida raqamli transformatsiya jarayonlarini jadallashtirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Raqamli texnologiyalarning jadal rivojlanishi va iqtisodiy munosabatlarning yangi shakllarini vujudga keltirishi natijasida raqamli infratuzilmani rivojlantirish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biriga aylandi. Xususan, elektron tijorat, elektron hukumat, masofaviy ta'lim, raqamli moliyaviy xizmatlar hamda sun'iy intellekt texnologiyalarining samarali faoliyati zamonaviy va barqaror raqamli infratuzilma mavjudligini talab etadi.

O'zbekiston Respublikasida ham raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish va davlat hamda xo'jalik boshqaruvi organlari faoliyatini raqamlashtirish bo'yicha keng ko'lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. Mamlakatda telekommunikatsiya tarmoqlarini modernizatsiya qilish, internet qamrovini kengaytirish, ma'lumotlar markazlarini rivojlantirish va raqamli xizmatlar ulushini oshirishga qaratilgan chora-tadbirlar raqamli infratuzilmaning iqtisodiy ahamiyatini yanada kuchaytirmoqda. Shu bilan birga, raqamli infratuzilmaning nazariy asoslari, tarkibiy elementlari va iqtisodiy mazmunini chuqur o'rganish ushbu yo'nalishda samarali rivojlanish strategiyalarini ishlab chiqishda muhim ilmiy-amaliy ahamiyatga ega.

Mazkur maqolaning maqsadi raqamli infratuzilma tushunchasining nazariy jihatlarini tahlil qilish, uning tarkibiy elementlarini tizimlashtirish hamda iqtisodiy mazmuni va iqtisodiy rivojlanish jarayonlaridagi o'rnini ilmiy jihatdan asoslashdan iborat. Ushbu maqsadga erishish uchun raqamli infratuzilmaning mohiyati, tarkibi, funksiyalari va iqtisodiyotning turli tarmoqlariga ta'siri o'rganiladi hamda raqamli transformatsiya sharoitida uning rivojlanish istiqbollari yoritiladi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Raqamli infratuzilma va uning iqtisodiy rivojlanishdagi o'rnini o'rganish so'nggi yillarda iqtisodiyot, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari hamda innovatsion rivojlanish yo'nalishlarida olib borilayotgan ilmiy tadqiqotlarning muhim yo'nalishlaridan biriga aylandi. Xalqaro va mahalliy ilmiy adabiyotlarda raqamli infratuzilmaning mohiyati, tarkibiy tuzilishi, iqtisodiy samaradorligi hamda raqamli transformatsiya jarayonlariga ta'siri turli yondashuvlar asosida tadqiq etilgan.

Raqamli iqtisodiyot nazariyasining shakllanishida N. Negroponte, D. Tapscott va M. Castells kabi olimlarning ilmiy ishlari muhim ahamiyat kasb etadi. Xususan, N. Negroponte raqamli texnologiyalarning iqtisodiy va ijtimoiy jarayonlarga ta'sirini tahlil qilib, kelajak iqtisodiyotining asosini axborot va raqamli texnologiyalar tashkil etishini ta'kidlagan. D. Tapscott esa raqamli iqtisodiyot konsepsiyasini rivojlantirib, iqtisodiy munosabatlar va biznes jarayonlarining raqamlashtirilishi yangi iqtisodiy modelning shakllanishiga xizmat qilishini asoslab bergan. M. Castells tomonidan ishlab chiqilgan "tarmoq jamiyati" nazariyasida esa zamonaviy iqtisodiy rivojlanishning asosiy omili sifatida axborot tarmoqlari va raqamli kommunikatsiyalar ko'rsatib o'tilgan.

Raqamli infratuzilmaning iqtisodiy mazmunini o'rganishda xalqaro tashkilotlarning ilmiy hisobotlari va tahliliy materiallari ham muhim manba hisoblanadi. Xususan, Jahon banki, Xalqaro telekommunikatsiya ittifoqi (ITU), Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti (OECD) hamda Birlashgan Millatlar Tashkiloti tomonidan tayyorlangan tadqiqotlarda raqamli infratuzilma iqtisodiy o'sishni jadallashtiruvchi, innovatsiyalarni qo'llab-quvvatlovchi va raqobatbardoshlikni oshiruvchi muhim omil sifatida baholanadi. Ushbu tadqiqotlarda keng polosali internet tarmoqlari, mobil aloqa tizimlari, ma'lumotlar markazlari va bulutli texnologiyalar raqamli iqtisodiyotning asosiy infratuzilmaviy komponentlari sifatida e'tirof etilgan.

R. Katz, B. Koutroumpis, E. Brynjolfsson va A. McAfee kabi tadqiqotchilar tomonidan olib borilgan ilmiy ishlarda raqamli infratuzilmaning mehnat unumdorligi, ishlab chiqarish samaradorligi va iqtisodiy o'sishga ta'siri empirik jihatdan o'rganilgan. Ularning tadqiqotlari natijalari shuni ko'rsatadiki, telekommunikatsiya va internet infratuzilmasiga yo'naltirilgan investitsiyalar iqtisodiyotning turli tarmoqlarida qo'shimcha qiymat yaratish va innovatsion faoliyatni rivojlantirish imkoniyatlarini kengaytiradi.

MDH mamlakatlari va O'zbekiston olimlari tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda ham raqamli iqtisodiyot va raqamli infratuzilmani rivojlantirish masalalariga alohida e'tibor qaratilgan. Mahalliy tadqiqotchilar raqamli transformatsiya jarayonlarini jadallashtirishda telekommunikatsiya tarmoqlari, elektron hukumat tizimlari, raqamli platformalar va elektron xizmatlarning ahamiyatini asoslab berganlar. Shu bilan birga, mavjud ilmiy ishlarda raqamli infratuzilmaning tarkibiy elementlarini kompleks baholash, uning iqtisodiy mazmunini tizimli ravishda yoritish hamda iqtisodiyot tarmoqlariga ta'sir mexanizmlarini chuqur tahlil qilishga oid masalalar yanada kengroq tadqiq etilishi zarur.



Adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, raqamli infratuzilma raqamli iqtisodiyotning asosiy institutsional va texnologik poydevori sifatida e'tirof etilmoqda. Shu bilan birga, ilmiy manbalarda ushbu tushunchaning tarkibiy tuzilmasi, iqtisodiy mazmuni va rivojlanish ko'rsatkichlarini baholash bo'yicha yagona yondashuv hali to'liq shakllanmagan. Mazkur holat raqamli infratuzilmaning nazariy asoslarini yanada takomillashtirish, uning tarkibiy elementlarini tizimlashtirish va iqtisodiy rivojlanishdagi o'rnini chuqur tadqiq etish zaruratini yuzaga keltiradi. Shu nuqtai nazardan, ushbu tadqiqot raqamli infratuzilma tushunchasi, tarkibi va iqtisodiy mazmunini ilmiy jihatdan tahlil qilishga qaratilganligi bilan ahamiyatlidir.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqotda raqamli infratuzilma tushunchasi, uning tarkibiy elementlari va iqtisodiy mazmunini ilmiy jihatdan o'rganish hamda baholashga qaratilgan umumilmiy va maxsus tadqiqot usullaridan foydalanildi. Tadqiqot metodologiyasining nazariy asosini raqamli iqtisodiyot, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va innovatsion rivojlanish sohalarida faoliyat yuritayotgan mahalliy hamda xorijiy olimlarning ilmiy ishlari, xalqaro tashkilotlarning tahliliy hisobotlari va normativ-huquqiy hujjatlar tashkil etadi.

Tadqiqot jarayonida, avvalo, ilmiy abstraksiyalash usuli yordamida raqamli infratuzilmaning mohiyati, asosiy belgilari va iqtisodiy mazmuni nazariy jihatdan tahlil qilindi. Ushbu usul raqamli infratuzilmaning iqtisodiy tizimdagi o'rne va funksiyalarini aniqlash hamda uning tarkibiy qismlarini umumlashtirish imkonini berdi.

Shuningdek, tizimli yondashuv usuli asosida raqamli infratuzilma o'zaro bog'liq bo'lgan texnologik, tashkiliy va institutsional elementlar majmui sifatida ko'rib chiqildi. Mazkur yondashuv telekommunikatsiya tarmoqlari, ma'lumotlar markazlari, bulutli texnologiyalar, raqamli platformalar va axborot tizimlarining yagona tizim sifatida faoliyat yuritish mexanizmlarini o'rganishga xizmat qildi.

Tadqiqot davomida qiyosiy tahlil usuli qo'llanilib, xalqaro amaliyotda raqamli infratuzilmani rivojlantirish bo'yicha mavjud yondashuvlar va tajribalar tahlil qilindi. Rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlarda raqamli infratuzilmaning iqtisodiy taraqqiyotga ta'siri bo'yicha erishilgan natijalar o'zaro taqqoslandi hamda ularning umumiy va farqli jihatlari aniqlandi.

Bundan tashqari, analiz va sintez usullari yordamida raqamli infratuzilmaning alohida tarkibiy elementlari o'rganilib, keyinchalik ular yagona iqtisodiy tizim sifatida umumlashtirildi. Mazkur usullar orqali raqamli infratuzilmaning iqtisodiy rivojlanish, innovatsion faoliyat va raqamli transformatsiya jarayonlariga ta'siri baholandi.

Tadqiqotda induksiya va deduksiya usullari ham keng qo'llanildi. Induksiya usuli yordamida alohida ilmiy qarashlar va amaliy tajribalar asosida umumiy xulosalar shakllantirildi, deduksiya usuli orqali esa mavjud nazariy konsepsiyalar asosida raqamli infratuzilmaning iqtisodiy mazmuni va rivojlanish tendensiyalari tahlil qilindi.

Shuningdek, statistik va mantiqiy tahlil usullari asosida raqamli iqtisodiyot hamda axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining rivojlanish ko'rsatkichlari o'rganildi. Tadqiqot natijalarining ishonchligini ta'minlash maqsadida ilmiy manbalar, xalqaro tashkilotlar hisobotlari va rasmiy statistik ma'lumotlar tahlil qilinib, ularning natijalari o'zaro solishtirildi.

Natijada qo'llanilgan metodologik yondashuvlar raqamli infratuzilmaning nazariy asoslarini chuqur tahlil qilish, uning tarkibiy tuzilmasini tizimlashtirish hamda iqtisodiy mazmunini ilmiy jihatdan asoslash imkonini berdi. Mazkur metodologiya tadqiqotning ilmiy asoslanganligi va xulosalarining amaliy ahamiyatini ta'minlashga xizmat qiladi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Raqamli iqtisodiyotning jadal rivojlanishi sharoitida raqamli infratuzilma iqtisodiy tizimning muhim tarkibiy qismi sifatida namoyon bo'lmoqda. Tahlillar shuni ko'rsatadiki, raqamli infratuzilma nafaqat axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining texnik asosini tashkil etadi, balki iqtisodiy munosabatlarning yangi shakllarini rivojlantirish, innovatsion faoliyatni qo'llab-quvvatlash va iqtisodiy o'sishni jadallashtirishda ham muhim rol o'ynaydi. Shu sababli raqamli infratuzilmaning mohiyati va tarkibiy tuzilishini ilmiy jihatdan tahlil qilish uning iqtisodiy mazmunini to'liq anglash imkonini beradi.

Tadqiqot natijalariga ko'ra, raqamli infratuzilma o'zaro bog'liq bo'lgan texnologik, dasturiy, tashkiliy va institutsional elementlar majmuasidan iborat murakkab tizim hisoblanadi. Mazkur tizimning asosiy tarkibiy qismlari quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- telekommunikatsiya va internet tarmoqlari;
- mobil aloqa tizimlari;
- ma'lumotlarni qayta ishlash markazlari (Data Center);
- bulutli hisoblash texnologiyalari;



- raqamli platformalar;
- axborot tizimlari va ma'lumotlar bazalari;
- kiberxavfsizlik vositalari;
- elektron hukumat va elektron xizmatlar tizimlari.

Ushbu elementlarning o'zaro integratsiyalashuvi natijasida iqtisodiyotning turli tarmoqlarida axborot almashinuvi tezlashadi, tranzaksiya xarajatlari qisqaradi va boshqaruv samaradorligi ortadi. Shu bois raqamli infratuzilma iqtisodiy faoliyatni amalga oshirish uchun zarur bo'lgan zamonaviy institutsional muhitni shakllantiradi.

Tahlillar natijasida raqamli infratuzilmaning iqtisodiy mazmuni bir necha yo'nalishlarda namoyon bo'lishi aniqlandi. Birinchidan, u iqtisodiy subyektlar o'rtasida axborot almashinuvini ta'minlovchi vosita sifatida faoliyat yuritadi. Ikkinchidan, raqamli texnologiyalar asosida yangi biznes modellari va xizmatlar bozorining shakllanishiga imkon yaratadi. Uchinchidan, ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish jarayonlarining avtomatlashtirilishi natijasida mehnat unumdorligi hamda resurslardan foydalanish samaradorligini oshiradi. To'rtinchidan, innovatsiyalarni joriy etish va bilimlarga asoslangan iqtisodiyotning rivojlanishiga xizmat qiladi.

Tadqiqot davomida raqamli infratuzilmaning iqtisodiy rivojlanishga ta'sir etish mexanizmi ham tahlil qilindi. Natijalar shuni ko'rsatadiki, telekommunikatsiya tarmoqlari qamrovining kengayishi va internet tezligining ortishi elektron tijorat, masofaviy ta'lim, elektron sog'liqni saqlash, raqamli moliyaviy xizmatlar hamda elektron hukumat tizimlarining rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Bu esa, o'z navbatida, iqtisodiy faollikning oshishi, yangi ish o'rinlarining yaratilishi va aholi turmush sifatining yaxshilanishiga xizmat qiladi.

Raqamli infratuzilmaning iqtisodiy mazmunini tizimli ravishda ifodalash maqsadida uning tarkibiy elementlari va iqtisodiy natijalari o'rtasidagi bog'liqlik 1-jadvalda keltirilgan.

1-jadval

Raqamli infratuzilma elementlarining iqtisodiy rivojlanishga ta'siri¹

Raqamli infratuzilma elementi	Asosiy vazifasi	Iqtisodiy natijasi
Telekommunikatsiya tarmoqlari	Axborot uzatish va aloqa	Bozor integratsiyasi va tranzaksiya xarajatlarning kamayishi
Internet infratuzilmasi	Global axborot almashinuvi	Elektron tijorat va raqamli xizmatlarning rivojlanishi
Ma'lumotlar markazlari	Ma'lumotlarni saqlash va qayta ishlash	Ma'lumotlarga asoslangan boshqaruv qarorlarini qabul qilish
Bulutli texnologiyalar	Masofaviy hisoblash va saqlash	Xarajatlarni optimallashtirish va moslashuvchanlikni oshirish
Raqamli platformalar	Iqtisodiy subyektlarni bog'lash	Yangi biznes modellari va innovatsion xizmatlarni yaratish
Kiberxavfsizlik tizimlari	Axborotni himoya qilish	Raqamli muhitga bo'lgan ishonchni oshirish

Tahlillar natijasida aniqlanishicha, raqamli infratuzilma iqtisodiy o'sishning zamonaviy omillaridan biri bo'lib, uning rivojlanish darajasi mamlakatning raqobatbardoshligi va innovatsion salohiyatiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Raqamli infratuzilmasi rivojlangan mamlakatlarda iqtisodiy jarayonlar tezroq raqamlashtiriladi, boshqaruv samaradorligi yuqori bo'ladi hamda yangi texnologiyalarni joriy etish imkoniyatlari kengayadi.

Tadqiqot natijalariga asoslanib, raqamli infratuzilmaning iqtisodiy mazmuni iqtisodiyot subyektlari o'rtasida samarali axborot almashinuvini ta'minlash, innovatsion rivojlanishni qo'llab-quvvatlash, ishlab chiqarish samaradorligini oshirish va raqamli iqtisodiyotning barqaror faoliyat yuritishi uchun zarur shart-sharoitlarni yaratishda namoyon bo'lishi aniqlandi. Shu bois raqamli infratuzilmani rivojlantirish mamlakatning uzoq muddatli iqtisodiy taraqqiyotini ta'minlashning ustuvor yo'nalishlaridan biri hisoblanadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Tadqiqot natijalari raqamli infratuzilma zamonaviy raqamli iqtisodiyotning asosiy tayanchi hamda iqtisodiy rivojlanishning muhim omillaridan biri ekanligini ko'rsatdi. Raqamli infratuzilma axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, telekommunikatsiya tarmoqlari, ma'lumotlar markazlari, bulutli texnologiyalar, raqamli platformalar, axborot tizimlari va kiberxavfsizlik vositalari kabi o'zaro bog'liq elementlar majmuasidan tashkil topgan murakkab tizim hisoblanadi. Ushbu elementlarning uyg'un faoliyati iqtisodiyotning turli tarmoqlarida axborot almashinuvini tezlashtirish, boshqaruv samaradorligini oshirish va innovatsion faoliyatni rivojlantirish

1 Muallif ishlanmasi



imkonini beradi.

Tahlillar shuni ko'rsatdiki, raqamli infratuzilma iqtisodiy subyektlar o'rtasidagi tranzaksiya xarajatlarini qisqartirishga, mehnat unumdorligini oshirishga, yangi biznes modellari va raqamli xizmatlarning shakllanishiga xizmat qiladi. Shu bilan birga, u iqtisodiyotni raqamlashtirish, elektron tijoratni rivojlantirish, davlat xizmatlarini takomillashtirish va raqobatbardoshlikni oshirishning muhim omili sifatida namoyon bo'ladi.

Tadqiqot davomida raqamli infratuzilmaning iqtisodiy mazmuni nafaqat texnologik baza sifatida, balki iqtisodiy o'sishni rag'batlantiruvchi, innovatsion rivojlanishni qo'llab-quvvatlovchi va iqtisodiyotning barqaror transformatsiyasini ta'minlovchi strategik resurs sifatida baholandi. Shuningdek, raqamli infratuzilmaning rivojlanish darajasi mamlakatning innovatsion salohiyati, investitsion jozibadorligi va xalqaro raqobatbardoshligiga bevosita ta'sir ko'rsatishi aniqlandi.

Tadqiqot natijalaridan kelib chiqib, raqamli infratuzilmani rivojlantirish va uning iqtisodiy samaradorligini oshirish bo'yicha quyidagi takliflar ishlab chiqildi:

1. Telekommunikatsiya infratuzilmasini modernizatsiya qilish va internet qamrovini kengaytirish orqali barcha hududlarda yuqori tezlikdagi internet xizmatlaridan foydalanish imkoniyatlarini yanada oshirish zarur.

2. Ma'lumotlarni qayta ishlash markazlari (Data Center) va bulutli texnologiyalarni rivojlantirishga yo'naltirilayotgan investitsiyalar hajmini kengaytirish hamda zamonaviy saqlash va qayta ishlash tizimlarini joriy etish maqsadga muvofiq.

3. Davlat va xususiy sektor o'rtasidagi hamkorlikni mustahkamlash orqali raqamli infratuzilma loyihalarini moliyalashtirish va ularni amaliyotga tatbiq etish samaradorligini oshirish lozim.

4. Raqamli platformalar va elektron xizmatlar ekotizimini rivojlantirish orqali iqtisodiyotning barcha tarmoqlarida raqamli transformatsiya jarayonlarini jadallashtirish maqsadga muvofiq.

5. Kiberxavfsizlik tizimlarini takomillashtirish va axborot xavfsizligini ta'minlash bo'yicha zamonaviy mexanizmlarni joriy etish raqamli muhitga bo'lgan ishonchni yanada mustahkamlashga xizmat qiladi.

6. Raqamli texnologiyalar sohasida malakali kadrlar tayyorlash va raqamli kompetensiyalarni rivojlantirish maqsadida oliy ta'lim muassasalari, ilmiy markazlar hamda biznes subyektlari o'rtasidagi hamkorlikni kengaytirish zarur.

7. Raqamli infratuzilmaning rivojlanish darajasini baholovchi kompleks indikatorlar tizimini ishlab chiqish hamda ular asosida monitoring va tahlil mexanizmlarini takomillashtirish maqsadga muvofiq.

8. Sun'iy intellekt, katta ma'lumotlar (Big Data), buyumlar interneti (IoT) va blokcheyn texnologiyalarini raqamli infratuzilma tarkibiga keng joriy etish orqali iqtisodiyotning innovatsion rivojlanish sur'atlarini yanada jadallashtirish mumkin.

Umuman olganda, raqamli infratuzilmani izchil rivojlantirish va uning barcha tarkibiy elementlarini o'zaro integratsiyalash mamlakatda raqamli iqtisodiyotni shakllantirish, iqtisodiy o'sishni jadallashtirish hamda aholi va biznes subyektlari uchun zamonaviy raqamli xizmatlar sifatini oshirishning muhim sharti hisoblanadi. Mazkur yo'nalishda amalga oshiriladigan chora-tadbirlar iqtisodiyotning barqaror va innovatsion rivojlanishini ta'minlashga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Абдуллаев И.С. Совершенствование механизмов оптимального регулирования региональной экономической системы: автореф. дис. ... канд. экон. наук. – Ташкент, 2017. – 26 с.

2. Raximov A.N. Raqamli iqtisodiyot sharoitida sanoat tarmoqlarini rivojlantirishning ilmiy-uslubiy asoslari // Spanish Journal of Innovation and Integrity. – 2024. – P. 43–48. – Available at: <https://sjii.es/index.php/journal/article/view/68>

3. Абдуллаев И., Кузибоев Б., Аллаяров С. Концептуальные аспекты регионального экономического прогнозирования // Актуальные научные исследования в современном мире. – 2018. – № 40. – С. 144–146.

4. Raximov A.N. Sanoat tarmoqlarining milliy iqtisodiyot barqarorligini ta'minlashdagi roli va rivojlantirish siyosati // Spanish Journal of Innovation and Integrity. – 2024. – P. 150–156. – Available at: <https://sjii.es/index.php/journal/article/view/83>

5. Achilova F.K. Digitization of Housing and Communal Services Management in Rural Areas // Экономика и предпринимательство. – 2022. – № 3 (140). – Т. 16. – С. 476–483.

6. Achilova F.K. Prospects for Econometric Modeling and Forecasting of Service Sector Development Processes in the Region // Экономика и предпринимательство. – 2026. – № 2 (187). – Т. 20. – С. 644–652.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz HAKIMOV

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Hasan MAQSUDOV

2026. № 6/2

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>